

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urinbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Qurbonova Marg'uba</i> O'ZBEK TILI VA TIL SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY OMMALASHTIRISH VOSITALARI	13-15
<i>Polvanov Azim Kuchkarovich</i> AMIR TEMUR QO'SHINIDA HARBIY TA'MINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING MANBALARDA YORITILISHI	16-21
<i>Esnazarova Zulfiya Baltashovna</i> QORAQALPOQLARNING SHAHAR MADANIYATI (1873 – 1924)	22-27
<i>Axmedov Shaxzod Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDAGI YOSHLAR TASHKILOTLARI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991 – 2017-yillar)	28-36
<i>Mamajonov Alisher, Alisherov Abduvohid</i> IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDIJONLIK RAHBAR XODIMLARINING ISHTIROKI	37-43
<i>Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li</i> XALQ TA'LIMI SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK ALOQALARI	44-47
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> INNOVATIVE APPROACHES TO URBAN PLANNING AND TOURISM INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN (CASE STUDY OF INDIA'S EXPERIENCE)	48-52
<i>Esanova Nilufar</i> 1991-2024 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANOAT SOHASIDA HAMKORLIGI: NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR (HINDISTON VA XITOIY MAMLAKATLARI MISOLIDA)	53-56
<i>Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li</i> O'ZBEK XONLIKLARI VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	57-64
<i>Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li</i> HUDUDIIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA	65-70
<i>Zokirjanov Mirzohid Shuxrat o'g'li</i> XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BOKU NEFT SANOATINING ROSSIYA IQTISODIIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI	71-74
<i>Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHG'UZOR-BOYSUN-QUMQO'RG'ON TEMIR YO'LINING QURILISHI VA UNING IJTIMOYIY-IQTISODIIY AHAMIYATI	75-80
<i>O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li</i> ULUG' VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKISTON SANOATI	81-88

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov

MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASSTERLARI:

EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN RIVOJLANISH 89-98

Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali qizi

MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KO'RSATISH:

QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI? 99-104

Xakkulov Akbar Uralovich

MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA'SIRI 105-111

Amonov Mehridin Oromiddinovich

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI:

AVTOKRATIK RAHBARLAR 112-117

Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna

HUDUDLARDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLANGANLIK DARAJASINI

BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI 118-125

Yangiboyev Rustam Berdiyarovich

TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI 126-131

Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich

DXSH LOYIHALARIDA INVESTITSION KRAUDFANDING MODELIDAN

FOYDALANISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA UNI TURISTIK

XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI 132-143

Eshqobilova Nigoraxon, Qurbonova Safiyabonu

DAVLAT BUDJETINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING

NAZARIY ASOSLARI 144-150

Umronov Eldorbek Sodirovich

HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING

EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KO'RSATKICHLARI 151-159

Turgunov Jasurbek, Siddikova Farangiz

OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY

IN UZBEKISTAN 160-172

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Ahmedova Dilrabo

YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY

JARAYONLARNING TA'SIRI 173-177

Raxmatova Xolidaxon Xolikovna

NAQSHBANDIYLIKDAGI MUROSA FALSAFASIGA OID QARASHLARINING

FALSAFIY TAHLILI 178-184

Kurbonaliyev Ural Xatamovich

ZAMONAVIY AXLOQIY INQIROZ SHAROITIDA ABU MUHAMMAD ABDULLOH

DORIMIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI 185-189

Soipova Mavjuda Karimjanovna

FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA BILISH MASALASI 190-194

<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i> MA'NAVIYAT DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING ASOSI	195-198
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER FALSAFIY QARASHLARIDA FRANSIYADA AGRAR MUNOSABATLAR TAHLILI	199-204
<i>Olimova Moxinur Ravshanbek qizi</i> YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING O'RNI	205-208
<i>Usarkulov Oybek</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARNING IJTIMOIIY AHAMIYATI	209-214
<i>Majidov Sodiqjon Sadullayevich</i> IJTIMOIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOIIY FALSAFIY TALQINLAR	215-218
<i>Абдуллаева Икбола Мохировна</i> КНИГА – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА – ИСКУССТВО СЛОВА	219-226
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY- FALSAFIY OMILLARI	227-230
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> GLOBAL MEHNAT BOZORIDA SOFT SKILLS VA IJTIMOIIY ONGNING STRATEGIK INTEGRATSIYASI	231-235
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> DESTRUKTIV TARG'IBOT TA'SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI	236-240
<i>Aslanov Said Karimovich</i> TIZIMLI YONDASHUV VA BOSHQARUV FAOLIYATING O'ZORO ALOQADORLIGI	241-244
<i>G'aniyev Elbek Abdizaitovich</i> YOSHLARDA AXLOQIIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI	245-248
<i>Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich</i> SINERGETIKANING ONTOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI	249-252
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i> GLOBAL MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA XALQARO KUCHLAR BIRLASHUVINING AHAMIYATI	253-258
<i>Azimov Ozod Mamatkulovich</i> YOSHLARDA EKOESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI	259-264
<i>Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna</i> TARIXIIY MANBALARDA YOSH MUTAXASSISLARNI RIVOJLANTIRISH HAQIDAGI QARASHLAR	265-271
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Мамбетов Сердар Ахмедович</i> СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА РУССКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК	272-280

<i>Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi</i> PRACTICAL NEEDS' ANALYSIS OF SOME BILINGUAL STUDENTS	281-288
<i>Rakhmonova Yulduz Khusanovna</i> A HETEROGENEOUS LEGACY: EXAMINING HEMINGWAY'S STYLE IN HIS LATER YEARS	289-295
<i>Yakubova Nilufar Egamberganovna</i> ESKI O'ZBEK TILIDA TAF'IL QOLIPLI O'ZLASHMALAR	296-301
<i>Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna</i> ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA BADIY KONFLIKT MASALASI	302-307
<i>Shomurodova Shahlo, Axmedjanova Farida</i> MARGARET DRABBLING "THE MILLSTONE" ASARIDAGI NOYOB KO'RINISH	308-311
<i>Nazarov Sardor Shamurodovich</i> A COMPARATIVE STUDY OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS	312-315
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> HAQORAT VA TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ DA'VOLARNI SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH ALGORITMI	316-325
<i>Файзуллина Наргиза Дамировна</i> СОВРЕМЕННЫЕ СИНОНИМЫ И ТЕРМИНЫ КОМПЬЮТЕРНО-ИГРОВОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	326-331
<i>Sodiqova Dinora Ilhom qizi</i> ANALYSIS OF PRINCIPLES OF CONVEYING FEELINGS CONCERNING LITERARY TRANSLATION	332-337
<i>Nazimova Himmatoy</i> "DEV" VA "YALMOG'IZ" OBRAZI ETIMOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY ILDIZLARI TAHLILI	338-342
<i>Arziqulova Xurshida, Mustanova Shohista</i> SHARQ VA G'ARB DRAMATURGIYASI: MADANIY ALOQALAR VA ILHOM MANBALARI	343-348
<i>Azizova Feruza Rejaveliyevna</i> TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI	349-353
<i>Agzamova Gulrux Ravshan qizi</i> XITOIY TILIDAGI MUHOJIRAT ATAMALARINING UMUMIY VA XUSUSIY BELGILARI	354-358
<i>Sherkulov Sardor Komilovich</i> SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF THOMAS HARDY: AN INVESTIGATION OF CLASS INEQUALITY, GENDER AND INDUSTRIALIZATION	359-364
<i>Rasulov Zubaydullo, G'ayratova Oybegim</i> DISKURS — LINGUAPRAMAGMATIK YONDASHUV OBYEKTI SIFATIDA	365-368
<i>Bozorova Umida Qilichovna</i> BADIY KIRITMALARNI ROSSIYADA O'RGANILISHI	369-372
<i>Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna</i> TOPISHMOQLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	373-376

Mamadiyeva Hilola

TAOM NOMLARINING TARJIMA JARAYONIDA MADANIY TAFOVUTLARNING

TA'SIRI 377-384

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Abdullayeva Nodira Odil qizi

OILAVIY (MAISHIY) ZO'RAVONLIK OMILLARI MAJMUASI 385-393

Jo'raqulov Javohir Musoqul o'g'li

TOVLAMACHILIK JINOYATINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN

FOYDALANIB SODIR ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR 394-399

Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li

YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING

PREDMETI VA USULLARI 400-407

Утебаев Саламат, Калбаева Эльдора

ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ

ХУЛИГАНИЯ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ 408-413

Nuriddinov Ismoil O'lmas o'g'li

BURHONUDDIN MARG'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA JINOYAT VA JAZO

MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR 414-420

Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi

SUN'IY INTELLEKTNING NOTO'G'RI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR):

MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI 421-432

Burxonov Shahzod Burxon o'g'li

XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI

TARTIBGA SOLISH 433-438

Avezov Umidjon Toshpulatovich

O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH

BOSQICHLARI TAHLILI 439-446

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Максудов Улугбек Курбанович

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОСТИ

СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННЫХ И СТАРТАП-ПРОЕКТАХ

В УСЛОВИЯХ МИРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 447-453

Lutfillayev Maxmud, Egamberdiyeva Feruza

SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI, TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 454-458

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

O'QUV FAOLIYATI TAMOIYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 459-463

Jamolova Gulbadanbegim, Muhammadiyeva Elmera

TALABALARDA TAHLILIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK

ASOSLARI 464-468

Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN KOMPLEKS

FOYDALANISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 469-478

<i>Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMAL TA'LIM YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	479-484
<i>Esboganova Baxit Daribayevna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARGA AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH METODIKASI	485-490
<i>Kamalova Dilnavoz, Amurillayeva Munira</i> TEKNOLOGIYA DARSLARINI O'TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI	491-495
<i>Абдуллаева Дилдора Улугбековна</i> АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРАВОВЫХ ДИСЦИПЛИН В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ	496-503
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i> STEAM TA'LIM TEKNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR	504-508
<i>Mustayeva Guldora, Mustayeva Guliston</i> SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF REFLECTION MECHANISMS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY	509-514
<i>Avazova Munisa</i> TA'LIM DIZAYNIDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH: GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV METODLARNING TA'SIRI	515-517
<i>Abdullayeva Mohigul, Fazlitdinov Muhammadali</i> SUN'IY INTELLEKT VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING XXI ASRDAGI ROLI HAMDA ULARNING TURLI SOHALARGA TA'SIRINI O'RGANISH	518-521
<i>Urinova Dilbar Abdusamat qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM FAOLIYATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA TARBIYACHILARNING OTA-ONALAR BILAN ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	522-526
<i>Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING FUNKSIONAL YONDASHUV METODLARI	527-532
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	533-539
<i>Suvanova Gulbaxor Baxromovna</i> KO'P MILLATLI MAKTABLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	540-543
<i>Qarshiyeva Muborak, Karshiyev Jaxongir</i> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS)GA TAYYORLASH USULLARI	544-547
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QUVCHILARDA NAFOSAT TARBIYASINING O'RNI	548-552

<i>Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich</i> KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI	553-562
<i>Bozorov Zokir, Ravshanova O'g'ilshod</i> BO'LAJAK MATEMATIKA FAN O'QITUVCHILARINING PLANIMETRIYA BO'YICHA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING ROLI	563-568

Received: 15 April 2025

Accepted: 1 May 2025

Published: 10 May 2025

Article / Original Paper

SUBJECT AND METHODS OF GROUNDWATER PROTECTION AND USE

Otamirzaev Oybek

Lecturer in the Department of Environmental law
of the Tashkent state university of law

E-mail: otamirzaev2107@gmail.com

Abstract. Today, there is a need to regulate relations related to groundwater. The task is to study its complex nature and re-examine methods of regulation. Pollution of groundwater, its unfitness for consumption, is a consequence of natural and human activities, which leads to environmental threats. Regulating relations related to it is a modern requirement.

Keywords: natural resources, subsoil, anthropogenic impact, mining, mineral water, ecological culture.

YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING PREDMETI VA USULLARI

Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti
Ekologiya huquqi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda yer osti suvlarini bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish zarurati yuzaga keldi. Uni murakkab tabiatini o'rganish va tartibga solish usullarini yangidan tadqiq etish vazifasi qo'yildi. Yer osti suvlarining ifloslanishi, ularning iste'molga yaroqsiz bo'lishi, tabiiy va inson faoliyatining natijasi bo'lib, bu ekologik tahdidlarga olib keladi. U bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish bugungi kunning davr talabidir.

Kalit so'zlar: tabiiy resurs, yer qa'ri, antropogen ta'sir, tog'-kon, mineral suv, ekologik madaniyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N66>

Kirish. Har bir tabiiy obyekti hamda tabiiy resurs jamiyat va tabiat uchun bajaradigan funksiyalarining xilma-xilligi bilan o'ziga xosdir. Huquqning vazifasi nafaqat huquqiy normalarda ana shu o'ziga xoslikni idrok etish va aks ettirish, balki u yoki bu tabiiy obyektni muhofaza qilishning o'ziga xosligini ta'minlash va shu orqali uning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanishga ko'maklashishdadir.

Yer osti suvlari yer qa'riining antropogen ta'sirlarga chidamliligini, yer gidrosferasi holatini va boshqa ekotizim obyektlarini belgilaydi. Yer osti suvlarining ko'pgina tabiiy komponentlar bilan uzviy bog'liqligi, ularning atrof-muhit holatiga, fuqarolarning ekologik huquqlarining holati va amalga oshirilishiga ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Rus olimi V.I.Vernadskiy "Yer osti suvlarining muhim xususiyati tabiatda sodir bo'ladigan ko'plab jarayonlarning ajralmas qismi bo'lishi va ularning rolini ekologik va tabiiy resurslar munosabatlarining obyekti sifatida" belgilaydi[1; 3-4- b.].

Mamlakatimizda atrof-muhitni asrash, muhofazasi va nazoratida asosiy normativ-huquqiy hujjat bu – **"Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"**gi qonun bo'lib, ushbu qonunning

2-moddasi “Tabiatni muhofaza qilish obyektlari va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar” deb atalib, uning 1-bandiga muvofiq “Tabiatni muhofaza qilish obyektlari (yer, yer osti boyliklari, suv, o’simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi) ifloslanishdan, buzilishdan, zararlanishdan, oriqlab ketishdan, vayron bo’lishdan, yo’q bo’lib ketishdan, nooqilona foydalanishdan muhofaza etilishi lozim” etib belgilangan[2]. Shunday qilib, yer osti suvlari suv fondi tarkibida tabiatni muhofaza qilish va ekologik munosabatlarning obyekti hisoblanadi.

Davlat siyosati darajasida islohotlarda ko’rishimiz mumkinki, barcha ekotizimlar bir-biriga bog’liq va ular yakdil bir zanjirni hosil qilgan [3; 1–2-b.]. Shunga ko’ra, atrof-muhit elementlari chambarchasligi orqali yer yuzida hayot yaratadi va tirik jonzorlar uchun qulay sharoitlarni ta’minlaydi. Buni bir qismi sifatida, yer osti suvlarini saqlash va ulardan oqilona foydalanish ko’p jihatdan boshqa tabiiy obyektlarga, ularning tabiiy resurslaridan va umuman atrof muhitdan oqilona foydalanishga bog’liq.

Yer osti suvlaridan foydalanish va uni muhofaza qilish bu sohani huquqiy tartibga solishning predmeti hisoblanadi. Uni **ikkiga** ajratishimiz mumkin: **bevosita va bilvosita predmetlar** [4; 67–68-b.]. Bevosita predmet – jarayon to’g’ridan-to’g’ri yer osti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog’liq bo’lgan munosabatlar bilan bog’liqligidir (kundalik turmushda quduq suvlaridan foydalanish yoki burg’i qudug’i suvlaridan hisoblagichlar o’rnatgan holda foydalanishi).

Bilvosita predmeti obyekti – to’g’ridan-to’g’ri yer qa’ri suvlari bilan bog’liq munosabatlar bo’lmasa-da, lekin bilvosita ta’sirga ega faoliyatlardir (foydali qazilmalar qazib olish, yer ostiga xavfli chiqindilar joylashtirish va boshqalar).

Yer qa’ri suvlari ekologik munosabatlar obyekti sifatida bir nechta xil shaklda namoyon bo’ladi: 1) butun bir tabiat obyekti sifatida; 2) tabiiy obyektlar va komponentlar; 3) geotermal yoki mineral suvlar shaklida yer osti suvlarining bir qismi namoyon bo’ladi [5; 18–19-b.].

Muhokama. Jamiyat va tabiat o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning nazariy-huquqiy aloqalari ekologik huquqning asosini tashkil etadi va bir necha bor sohada muhokama mavzusi bo’lgan. Yer osti suvlari huquqiy tartibga solish obyekti sifatida yer osti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish subyektlarining o’ziga xos xususiyatlarini belgilaydi, bu yer osti suvlarining bir vaqtning o’zida bir nechta tabiiy komponentlarga: suvga, yer qa’riga, yerga tegishliligi bilan belgilanadi [6; 14–15-b.]. Ushbu tabiiy komponentlar tabiiy resurslar huquqi va qonunchilikning alohida – “o’ziga xos” tarmoqlariga mos keladi. Olimlar tabiiy huquq sohalarining har biri o’zining mavjudligi bilan asosan bitta tabiiy obyektlar bilan bog’langanligini ta’kidlaydi. Biroq, yer osti suvlarini huquqiy tartibga solishga bag’ishlangan alohida huquq sohasi va qonun hujjatlarining mavjud emasligi, yer osti suvlarining davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ekologik xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyatini kamaytirmaydi [7; 38–39-b.].

Shunday qilib, yaqin vaqtgacha yer osti suvlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish muammolari huquqiy tartibga solishning kamchiliklar mavjud edi. Antropogen yukning ortib borayotgani va yer osti suvlarini samarali himoya qilishni ta’minlash bo’yicha me’yorlarning yo’qligi toza ichimlik suvi tanqisligi va suvni ko’p talab qiladigan sanoat korxonalarining ehtiyojlarini yetarli darajada qondira olmaslik muammolarini ko’rsatdi.

Yer osti suvlaridan turli maqsadlarda foydalaniladi. Masalan, ichimlik suvi ta’mini, dam olish va davolash (rekreatsion va sanatoriy maqsadlar), sanoat korxonalarini suv bilan ta’minlash, hamda yoqilg’i-energetika sohasida. Ushbu ko’p yo’nalishli foydalanish holati yer

osti suvlariga oid munosabatlarga faqat birgina sohaga tegishli bo'lgan qonunlar emas, balki boshqa turli huquqiy sohalar va qonun hujjatlarini ham qo'llashni talab qiladi.

Olimlarning bir guruhi (A.A. Ruskol, N.A. Sirodov, L.A. Zaslavskaya) yer osti suvlarini huquqiy tartibga solish masalasi bir vaqtning o'zida ikkita soha – tog'-kon huquqi va suv huquqiga tegishli deb hisoblaydi. Ularning fikricha, yer osti suvlari yer qa'rida joylashgani uchun tog'-kon huquqi bilan bog'liq, lekin ularning asosiy vazifasi suv manbai bo'lishi sababli suv huquqi doirasida ham tartibga solinadi.

Boshqa olimlar esa (masalan, O.S. Kolbasovna, T.Y. Titovna) bu masalaga boshqacha yondashadi. Ularning qat'iy fikriga ko'ra, yer osti suvlari faqat suv huquqining obyektidir va ularni tog'-kon huquqiga kiritish ilmiy jihatdan noto'g'ri. Ular yer osti suvlari tabiat resursi sifatida, aynan suv resurslari tizimida baholanishi va boshqarilishi kerak, deb hisoblaydi.

Demak, yer osti suvlarining huquqiy maqomi borasida yagona yondashuv mavjud emas. Fanning bu boradagi yondashuvlari hali-hanuz izchil shakllanmagan bo'lib, ularni suv huquqi doirasidami yoki tog'-kon huquqi bilan birgalikda baholash kerakmi – bu masala fanda ochiq qolmoqda. Ekologiya huquqining qaysi sohasiga yer osti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishni o'z ichiga olishi haqidagi munozaralarning paydo bo'lishi va rivojlanishi o'tgan asrning 60-80-yillarida tabiiy resurslar qonunchiligini muhokama qilish va shakllantirish davridan paydo bo'ldi. Shunday qilib, A.A. Ruskol va L.A. Zaslavskaya yer osti suvlarini huquqiy tartibga solish ikki tomonlama xarakterga ega bo'lishi kerak, ya'ni yer osti suvlaridan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish masalalari ushbu huquq sohalarida o'rtasida ajratilgan taqdirda, suv va tog'-kon huquqining ikkala sohasiga bo'ysunishi kerak deb hisoblardi [8; 52-53-b.].

Amerikalik olim Samuel Mandel yer osti suvlarini yerning tubida va yer yuzasida joylashishi mumkin bo'lgan, yer tubidan yer yuzasiga va aksincha kelishi mumkin bo'lgan suv turi deb hisoblaydi. Binobarin, yer osti suvlarining huquqiy rejimi yer qa'ridan kompleks foydalanish, yer osti inshootlarini suvning zararli ta'siridan muhofaza qilish, shuningdek, yer osti suvlarini qidirish va qidirish nuqtai nazaridan yer qa'ri rejimiga bo'ysunishi kerak deb ta'kidlagan [9; 18-19-b.].

Bizning fikrimizcha, yer qa'rida joylashgan suvlar, ya'ni yer osti suvlari, o'z tabiatiga ko'ra bevosita yer qa'rining tarkibiy qismi bo'lib, yer osti boyliklari sifatida qaralishi lozim. Ular yer qatlamlari orasida joylashgani va tog' jinslari bilan uzviy bog'liqligi sababli ularni alohida suv resursi sifatida emas, balki yer qa'ri resurslari tizimida baholash maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, yer osti suvlarining muhofazasi, ulardan foydalanish tartibi va ularga oid huquqiy munosabatlar, odatda, yer qa'ridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Shu boisdan, bunday suvlarni faqat suv huquqi doirasida emas, balki tog'-kon huquqi asosida, ya'ni yer osti boyliklari bilan bog'liq qonunchilik orqali tartibga solish yanada to'g'riroq yondashuv bo'ladi.

Yer osti suvlarini tog'-kon tuzilmalari orqali boshqarish, ularning tabiiy holati, shakllanish mexanizmlari va ularni muhofaza qilish choralari bilan uyg'unlashgan bo'lib, tizimli yondashuvni ta'minlaydi. Shu sababli, ularni tog'-kon huquqi doirasida tartibga solish zarur deb hisoblaymiz.

Suvlardan foydalanishda avvalo, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash va maishiy ehtiyojlarni qondirish asosiy o'rinda turadi [10]. Bundan ko'zlangan maqsad ham mamlakatimiz "O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren,

demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” deb berilgan sifatlarni bir ko‘rinishi – **ijtimoiylik**dir [11]. Davlatimiz tomonidan fuqarolarni huquq va erkinliklar barcha masalalardan ustunligi so‘zsiz tan olinadi va uni ijrosi ta‘minlanadi. Xususan, birinchi navbatda xalqni toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash, ularni ehtiyojlarini qondirish, shundan so‘ng esa qishloq xo‘jaligi, sanoat va boshqa masalalarga suv ajratish ko‘rib chiqiladi [12].

Yuqoridagi qaror bilan sug‘oriladigan yerlar tariflarini inventarizatsiya qilish, suvni tejovchi texnologiyalar va ulardan qishloq aholisi foydalanishini rag‘batlantirish mexanizmlarini keng ko‘lamda qo‘llash orqali suv sathi pasayib borayotgan hududlarda namlik sarfi kam bo‘lgan ekinlar yetishtirishga bosqichma-bosqich yondashish bo‘yicha chora-tadbirlar ham nazarda tutilgan.

Ilmiy usullar. Bizning fikrimizcha, **ekologiya huquqining murakkab tabiati** tabiatni muhofaza qilish huquqi tarmoqlarini birlashtiruvchi elementi bo‘lgan, tabiat obyektlari va ularning resurslaridan, xususan, yer osti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish jarayonida tarmoqlar o‘rtasidagi munosabatlarni asoslashga yordam beradigan ekologik huquq normalari va tabiiy resurslar huquqi tarmoqlarining o‘ziga xosligi belgisidir [13; 201-202-b.].

Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, yer osti suvlarini himoyasi va unda oqilona foydalanish usullari qator turlardan iborat. **Birinchi navbatda, sohani huquqiy tartibda solish asosiy o‘rinda turadi.** Mamlakatimizda yer osti suvlari bilan bog‘liq qonunchilik avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida va Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risidagi qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari va ichki normativlar bilan tartibga solinmoqda. Bular qatoriga hozirda muhokamalari davom etayotgan Suv kodeksi loyihasi ham kiritilishi kutilmoqda. Bularda asosan imperativ tusdagi normalarda tashkil topgan.

Hozirgi vaqtda suv resurslarini boshqarish, undan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlar 10 ga yaqin qonun hujjatlari, shuningdek, 20 tadan ortiq qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi [14].

Ushbu hujjatlar suv munosabatlarini huquqiy tartibga solishda asos bo‘lsada, suv qonunchiligining yagona muvofiqlashtirilgan tizimini shakllantirishni yetarli darajada ta‘minlay olmadi. Shundan kelib chiqib, suv va suvdan foydalanish sohasida yagona huquqiy hujjat yaratish maqsadida ishlab chiqilgan Suv kodeksi loyihasida bir qator muhim normalar o‘z aksini topmoqda. Jumladan, suvdan oqilona foydalanish, suv yetkazib beruvchilar hamda suv iste‘molchilarining mas‘uliyatini oshirish, suvdan foydalanishda ruxsatnoma olish tartibini soddalashtirishga qaratilgan normalar belgilanyapti.

Ikkinchidan, Yer osti suvlarini boshqarishdagi davlat nazorati, kadastri va monitoring tizimlari ekologik barqarorlikni saqlash, suv resurslarining to‘g‘ri boshqarilishini ta‘minlash va yer osti suvlarining ifloslanishining oldini olish uchun zaruriy vositalardir. Bu tizimlar yer osti suvlarining sifatini, miqdorini va ulardan foydalanishni muntazam ravishda kuzatib boradi. Bu albatta sohani boshqarish, tartibga solish va uni muhofazasida muhim o‘rin tutadi. Jumladan, ushbu usulni taraqqiyotida davlat rahbarining tashabbuslari muhim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” farmoni bilan sohada aholini ichimlik suvi bilan ta‘minlash yuzasidan quyidagi vazifalar belgilab berildi:

“1,8 ming kilometr ichimlik va oqova suv tarmoqlari, 77 ta ichimlik va oqova suv inshootlari qurilishi hamda rekonstruksiya qilinishi;

ichimlik suv tizimida ma’nan eskirgan 746 ta nasos uskunalari energiya tejamkorlariga almashtirilishi, hududlarda 65,2 megavatt quvvatga ega quyosh panellari o’rnatilishi, suv inshootlari va magistral suv tarmoqlariga 955 ta zamonaviy suv hisoblagichlar o’rnatilishi;

barcha ichimlik suv ta’minoti korxonalarida sifat monitoringini yuritish va ma’lumotlarni boshqarish markazlari yaratilishi;

daryolar, ko’llar va kanallarga turli ifloslantiruvchi moddalar tashlanishi ustidan nazorat kuchaytirilishi ta’minlansin”[15]. Bularning barchasi xalqimiz farovonligi, sog’lig’ini saqlash va ularga sifatli xizmat ko’rsatish orqali xalqni rozi qilish masalasi davlat darajasiga ko’tarildi.

Uchinchidan, yer osti suvlaridan foydalanuvchilarni ekologik madaniyatni oshirish zarur. Davlatlarda qonunchilik amal qilish ko’rsatkichlari, ularga to’liq rioya etish fuqarolarning huquqiy madaniyatda ko’rinadi. Atrof muhit borasidagi normativlarga rioya etish esa fuqarolarning ekologik huquqiy madaniyatida aks etadi. Fuqarolarda ekologik madaniyatni oshirish — bu ekologik ongni shakllantirish, tabiiy resurslarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo’lish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va atrof-muhitni asrashga bo’lgan mas’uliyatni rivojlantirish jarayonidir. Bugungi kunda atrof-muhit muammolari, iqlim o’zgarishlari va resurslarning kamayishi global miqyosda tobora jiddiylashib bormoqda, shuning uchun ekologik madaniyatni oshirish nafaqat davlatlar va xalqaro tashkilotlar, balki har bir fuqaro uchun ham ustuvor vazifaga aylanib bormoqda.

Ekologik madaniyatni oshirish har bir fuqaroning atrof-muhitga bo’lgan mas’uliyatli va ongli munosabatini shakllantirishni talab qiladi. Bu jarayonning samarali amalga oshirilishi uchun ta’lim, targ’ibot, qonunchilik va jamoatchilikning faol ishtiroki zarur. Ekologik madaniyatni oshirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki barqaror rivojlanishni ta’minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni saqlash uchun ham muhimdir. Har bir fuqaroni ekologik mas’uliyatga o’rgatish, ularni ekologik ongli shaxslar sifatida tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

Yer osti suvlarining ahamiyati nafaqat ichimlik suvi ta’minoti, balki sanoat va qishloq xo’jaligi uchun ham muhim resurs hisoblanadi. Ko’plab hududlar uchun yer osti suvlariga bo’lgan talab ortib borayotganligi sababli, ularning muhofazasi va barqaror foydalanilishi dolzarb masalaga aylangan. Suv taqsimoti va resurslarni boshqarishning samaradorligi ekologik muvozanatni saqlashda hal qiluvchi omil bo’ladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risida” farmoni bilan mamlakatda ekologik madaniyatni rivoji yo’lida muhim qadam bo’ldi. Unga ko’ra:

- 1) Aholining ekologik madaniyatni mustahkamlash chora-tadbirlari bo’yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqish topshirig’i berildi;
- 2) Respublika miqyosida ekologik madaniyatni oshirish maqsadida ommaviy targ’ibot tadbirlarini tashkil etish: a) “Daraxtga nafas bering” ommaviy tadbirini o’tkazish; b) “Ekologiyaning yosh himoyachilari” loyihasini amalga oshirish; d) “Green Games” ekologik turkum o’yinlarini o’tkazish; e) Bog’, sayilgoh, daraxtzor, yashil vohalar o’rtasida “Yashil zamin yaratuvchilari” eko-marafonining an’anaviy ko’rik-tanlovini o’tkazish vazifalari yuklandi.

Yer osti suvlarini tabiiy resurs sifatida tushunish muhim. Ular yer qavatining turli qatlamlari orasida joylashgan bo'lib, odatda tabiiy usulda to'plangan suv manbalaridir. Bu suvlarning asosiy xususiyatlari – ularda saqlanadigan suv miqdori, ulardan foydalanishning imkoniyatlari, sifat o'zgarishlari, almashinuvi va tiklanish jarayonlari bilan bog'liq ekologik jarayonlar. Ularning tabiiy shakllanishi geologik jarayonlarga, iqlim sharoitlariga va inson faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimizda yer osti suvlarini muhofazasi “Suv va suvdan foydalanish to'g'risida”gi qonun bilan ta'minlanadi. Biroq, uni himoya mexanizmlari to'laqonli yoritilmagan va tushunmovchiliklarga sabab bo'ladi.

“Yer qa'ri to'g'risida” qonun bilan faqat sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan yer osti suvlari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishi haqida ma'lumot berilgan [16.]. Bu esa bu sohadagi xalqaro hujjatlarni prinsiplariga nomuvofiq bo'lib, yer osti suvlarini ichki qismlarga bo'lib, tartibga solishdan ko'ra barcha turlariga birdek e'tibor qaratish muhim. Bu esa huquqiy hujjatlarni tarqoqligi va uni ijrosini ta'minlashda qator xatoliklar sabab bo'lmoqda.

Yer osti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning yagona usulini ajratib ko'rsatish qiyin, chunki u yer osti suvlari turlaridan kelib chiqib, foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarning sohaviy bog'liqligida ko'rinadi.

Natija. Yer osti suvlari yer qa'rining bir qismi bo'lganligi sababli, suvlar, yer, yer osti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog'liq munosabatlar qisman **tog'-kon, suv va yer huquqi** sohalarini huquqiy tartibga solishning predmeti hisoblanadi. Shuning uchun, bir tomondan, yer osti suvlarini huquqiy tartibga solishda alohida tabiat resurslardan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlariga asoslangan tabaqalashtirilgan yondashuv qo'llaniladi. Boshqa tomondan, barcha tabiiy komponentlar o'zaro bog'liq bo'lib, ulardan birining doimiy ravishda ishlatilishi boshqasidan foydalanish va himoya qilishga ta'sir qiladi. *Tog' jinslarining bir qismi sifatida yer osti suvlari yagona gidrotizimning bir qismi bo'lib qoladi* [17]; o'simliklar, tuproq va yer usti suvlarining holati yer osti suvlaridan foydalanish rejimiga bog'liq [18; 40-41-b.]. Yer osti suvlari tabiiy komponent bo'lganligi sababli, yer osti suvlarini huquqiy tartibga solish ham kompleks yondashuvga asoslanadi. Yer osti suvlaridan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solishning kompleks va tabaqalashtirilgan yondashuvlarini bir vaqtda qo'llash atrof-muhitni muhofaza qilishning boshqa tarkibiy qismlari orasida yer osti suvlarining rolini yaxshiroq tushunishga, yer osti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish muammolarini ilmiy tadqiq qilish usullarini ko'paytirishga imkon beradi. Shunday qilib, kompleks yondashuv tabiatda yer osti suvlaridan foydalanish bilan bog'liq jarayonlarni tizimli tahlil qilish va tegishli huquqiy tartibga solishni qonunchilikda mustahkamlash imkonini beradi. O'z navbatida, tabaqalashtirilgan yondashuv tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar sohasini batafsilroq tushunish imkonini beradi.

Maqsadli foydalanilishiga ko'ra suv iste'moli ichimlik, kommunal-maishiy, davolash, kurort, rekreatsiya, baliqchilik xo'jaligi, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi suv iste'moliga va boshqa turlarga bo'linadi. Suv obyektidan olinadigan suvning miqdoriga qarab suv iste'moli umumiy va maxsus suv iste'moliga bo'linadi [19]. Yuqoridagi turlarni foydalanish mexanizmi biri-biridan farq qilishiga qarab, shuningdek foydalanish suv inshootlariga qarab, har bir tur

uchun alohida yondashuv lozim. Bu orqali yer osti suvlarini himoyasini to'laqonli ta'minlash va ular bilan kelib chiqadigan kamchiliklar va muammoli holatni oldi olingan bo'lardi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 7-dekabrda "Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida yer osti suvlari muhofazasi va oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar belgilangan. Hujjat bilan yer osti suvlari sathi pasayib borayotgan, quduqlarni burg'ilash va yer osti suvlaridan foydalanishga moratoriy joriy etilgan hududlar ro'yxati tasdiqlandi.

2023-yilning 1-aprelidan boshlab yer osti suvlaridan suv olish uchun inshootlari (burg'ilash qudug'i, suv olish) buloqlari bo'lgan barcha foydalanuvchilar tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining hududiy gidrogeologiya stansiyalariga yillik suv olish hajmi to'g'risida belgilangan tartibda hisobot taqdim etish majburiyati yuklatildi.

Aholining barcha toifalarida suvga, ayniqsa, yer osti suvlariga bo'lgan talab ortib borayotganligi sababli, so'nggi yillarda yer osti suvlari hajmi keskin oshgan taqqoslash uchun 2014-yildan buyon 2022-yilda mamlakatimizda yer osti suvlarini qazib olish hajmi 30 foizga oshdi va ayrim hududlarda bu ko'rsatkich ancha yuqoriligicha qolmoqda. Haqiqatda, qazib olingan yer osti suvlari miqdori ko'rsatilganidan bir oz ko'proq bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Вернадский В. И. История минералов земной коры Т 2 история природных вод 1960г, 202 с.
2. <https://lex.uz/ru/docs/-107115>.
3. Raghavendra, N. Sujay, and Paresh Chandra Deka. "Sustainable development and management of groundwater resources in mining affected areas: a review." *Procedia Earth and Planetary Science* 11 (2015): 598.
4. Burchi, Stefano. "Legal principles and legal frameworks related to groundwater." *Advances in groundwater governance*. CRC Press, 2017. 122.
5. Lachassagne, Patrick. "What is groundwater? How to manage and protect groundwater resources." *Annals of Nutrition and Metabolism* 76.Suppl. 1 (2021): 17-24.
6. Yazicigil, Hasan, and Mehmet Ekmekci. "Groundwater." *Water Resources of Turkey* (2020): 164.
7. Право природопользования в СССР // Отв ред И А Иконицкая Коллективная монография М «Наука» 1990 С 46.
8. Л. А. Заславская Соотношение земельного, водного, лесного и горного законодательства //Ученые записки ВНИИСЗ, вып 18 1969 С 78 Л А Заславская Законодательство о недрах //Советское государство и право, № 7, 1977 С 67.
9. Mandel, Samuel. *Groundwater resources: investigation and development*. Elsevier, 2012.
10. "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" qonunning 25-moddasi.
11. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1-moddasi.
12. UN General Assembly; Special Rapporteur on the Human Right to Safe Drinking Water and Sanitation Catarina de Albuquerque. Human right to safe drinking water and sanitation: Note by the Secretary-General.2013.
13. Aagaard, Todd S. "Environmental law as a legal field: an inquiry in legal taxonomy." *Cornell L. Rev.* 95 (2009): 221.
14. <https://parliament.gov.uz/news/islohotlarning-huquqiy-asoslarini-mustahkamlash-asosiy-vazifa>.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida 16-sonli farmoni.
16. "Yer qa'ri to'g'risida"gi qonunni 1-moddasi.

17. Pacheco, Fernando AL. "Regional groundwater flow in hard rocks." *Science of the Total Environment* 506 (2015): 182.
18. Sophocleous, Marios. "Interactions between groundwater and surface water: the state of the science." *Hydrogeology journal* 10 (2002): 55.
19. Suv va suvdan foydalanish to'g'risidagi qonunning 211-moddasi.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).